



AHOLINING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Abdixafizov Suhrob Shuxrat o'g'li
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
"Biznesni boshqarish (MBA)" kafedrası magistri

Annotatsiya: Maqolada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan o'quv kurslarining sifatini oshirish; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini takomillashtirishga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, maqolada keltirilgan takliflar va tavsiyalarining amaliyotga tadbiriq aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini tadbirkorlik sohasiga jalb etish ko'lamini ma'lum darajada kengaytirishi mumkin.

Kalit so'zlari: tadbirkorlik, innovatsiya, ishsizlik darajasi, raqobat, mikrocredit, rentabellik darajasi.

So'nggi yillarda xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'plab amalga oshirilmoqda. Biz ushbu paragrafda ana shunday ilmiy tadqiqotlarning ayrimlariga e'tibor qaratamiz.

Bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra:

- rivojlanishning innovatsin mazmuniga ta'sir qiluvchi asosiy omil bo'lib, inson resurslarini samarali boshqarish hisoblanadi;
- inson resurslarini boshqarish va innovatsiya o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik dinamik, kopmleksli va multi omillidir;
- yuzaga kelgan murakkabliklar shunga olib keldiki, XX asrda inson omilining innovatsion jarayonlardagi rolini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy yo'nalish shakllandi¹⁶.

Ye.Mazilov va A. Kreminning xulosasiga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati Rossiya Federatsiyasi va uning hududlari uchun rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylandi. 2010-2018 yillarda Rossiyada kichik korxonalarda band aholining soni 1,5 barobarga ko'paydi, kichik korxonalarining asosiy kapitaliga qilingan investitsiyalarning aholi jon boshiga mos keladigan miqdori 3 martaga oshdi¹⁷.

T. Belyaeva, A. Laskovaya va A. Shirokovalarning fikriga ko'ra, aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

¹⁶Gupta A.K., Singhal A. Managing Human Resources for Innovation and Creativity. Research-Technology Management, 1993, vol. 36, pp. 41-48.; Mate D., Carpaneto A., Tirassa C.. Opening the black box: How staff training and development affect innovation. Proceedings of the 21st Conference of the International Society for Professional Innovation Management. Eds. K.R.E. Huizingh, M. Torkkeli, S. Conn, I.M. Bitran. Bilbao, Spain, June 6-9, 2010.; Завьялова Е.К., Цыбова В.С., Яхонтова Е.С. Взаимосвязь управления человеческими ресурсами и инновационной активности российских компаний // Рос. журн. менеджмента. 2014. № 12 (3). С. 3-32.

¹⁷Мазилов Е.А., Кремин А.Е. Роль малого бизнеса в социально-экономическом развитии российских регионов: проблемы и тенденции // Проблемы развития территории. 2018. № 2 (94). С. 7-18. DOI: 10.15838/ptd/2018.2.94.1



- individning xarakteri;
- individning individual xususiyatlari (jinsi, yoshi, ma'lumoti darajasi);
- individning psixologik tavsifi;
- tashqi muhit (mamlakatdagi ishsizlik darajasi, tadbirkorlikni rag'batlantirish sohasidagi davlat siyosati, innovatsion tarmoqlarning rivojlanganlik darajasi)¹⁸.

Bir guruh iqtisodchi olimlarning xulosalariga ko'ra, aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanishiga quyidagi ichki omillar kuchli ta'sir qiladi:

- korrupsiya darajasi;
- soliqlarning darajasi;
- tekshirishlarning soni va jarayonlari;
- biznesni rivojlantirish uchun grantlar va subsidiyalar olish imkoniyati;
- tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasi;
- biznesni ochish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning mavjudligi;
- raqobat¹⁹.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasi ham ko'p iqtisodchi olimlar tomonidan aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralgan.

Ularning fikricha, raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli tovarlar va xizmatlarning yangi turlari paydo bo'ladi va xizmatlar ko'rsatish tezligi sezilarli darajada oshadi. Raqamli texnologiyalar katta hajmdagi operatsiyalar bo'yicha vazifalarni hal qilishni arzonlashtiradi, tezlashtiradi va vositachilarsiz amalga oshirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat xizmatlar qiymatini pasaytirish, balki yangi texnologiyalarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, kraud-fandingni va kraudsorsingni yangi iqtisodiy texnologiyalar deb hisoblash mumkin.

Kraudfanding (inglizcha srowdfunding) – odamlarning jamoaviy hamkorligi bo'lib, bunda odamlar o'zlarining pul mablag'larini yoki boshqa resurslarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradilar. Ushbu mablag'lar turli shakldagi tadbirlarni moliyalashtirishga, shu jumladan, startap kompaniyalarni va kichik biznesni moliyalashtirishga, foyda olish maqsadida investitsiya qilishga yo'naltiriladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning tashqi omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosatni yuritish;
- qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish;

¹⁸Беляева Т.В., Ласковая А.К., Широкова Г.В. Обучение предпринимательству и формирование предпринимательских намерений студентов: роль национальной культуры // Рос. журн. менеджмента. 2016. № 14 (1). С. 59–86.

¹⁹Lim S., Pathak S., Chang D., Li W. Influences on attitudes toward entrepreneurship: A multi country study. Entrepreneurship Management, 2006, vol. 2, pp. 351–366.; Laspita S., Breugst N., Heblich S., Patzelt H. Intergenerational transmission of entrepreneurial intentions. Journal of Business Venturing, 2012, vol. 27, no. 4, pp. 414–435.; Reynolds P., Miller B., Maki W.R. Explaining regional variation in business births and deaths: U.S. Small Business Economics, 1995, vol. 7, no. 5, pp. 389–707.; Lee S., Lim S., Pathak S., Chang D., Li W. Influences on attitudes toward entrepreneurship: A multi country study. EntrepreneurshipManagement, 2006, vol. 2, pp. 351–366.



- siyosiy barqarorlikni ta'minlash.

Fikrimizcha, aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanishida mikromoliyalash tizimining rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat mikromoliyalash tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali aholining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga kuchli turtki beradi. Masalan, Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholining mikromoliyalash amaliyoti davlat tomonidan quyidagicha qo'llab-quvvatlanadi:

– mikro kreditlar 1000 AQSh dollarigacha miqdorda beriladi;

– asbob-uskunalar sotib olish uchun kreditlar 10000 AQSh dollaridan 25000 AQSh dollarigacha bo'lgan miqdorda 3 yilgacha muddatga beriladi;

– davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish amaliyoti soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlanadi²⁰.

Agar jahon bozorining bahosi ichki baholardan yuqori bo'lsa, u holda, importga nisbatan subsidiya joriy qilinadi. Ushbu mexanizm orqali qishloq xo'jalik mahsulotlarining qariyb to'rt dan bir qismining raqobatbardoshligi ta'minlanadi²¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 31 - yanvardagi PQ-2746-sonli "Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikro kreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarorga asosan, imtiyozli mikro kreditlar quyidagi shartlarda beriladi:²²

- mikro kredit summasi - eng kam ish haqi miqdorining 200 barobarigacha;

- asosiy qarzni to'lashga 6 oy muddatli imtiyozli davrni hisobga olgan holda 3 yil muddatga;²³

- yillik foiz stavkasi miqdorlari: bitta ish joyi yaratilganda – 9%, ikkita ish joyi – 8%, uch tadan to'rt tagacha ish joylari – 7%, besh va undan ortiq ish joylari yaratilganda – 6% miqdorida²⁴.

"Graminbank"ning kreditlari imtiyozli stavkalarda va bozor stavkalarida beriladi. Shunisi xarakterliki mikro kreditlarning 60 foizdan ortiq qismi imtiyozli stavkalarda beriladi. Bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari faoliyatini rivojlantirish nuqtai-nazaridan muhim hisoblanadi.

"Graminbank"ning arzon kreditlari ishsizlik muammosini hal qilishda muhim o'rin tutadi. Buning sababi shuki, arzon kreditlar ishlab chiqaruvchilarning investitsion va joriy xarajatlarini moliyalashtirishda muhim o'rin tutgani holda, kreditni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining rentabellik darajasi nisbatan past bo'lganligi sababli, ularni bozor stavkasidagi kreditlarni qaytarish imkoniyatini cheklangan. Chunki, kreditni qaytarish

²⁰ Weiss N.E. Economic Factors Affecting Small Business Lending and Loan Guarantees Washington, 2008. – February 28. – P. 11.

²¹ Экономика Европейского Союза. Под ред. Р.К.Шенина. – М.: КноРус, 2012. - С. 62.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 31.01.2017 yildagi PQ-2746-son

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 31.01.2017 yildagi PQ-2746-son

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 31 январдаги ПҚ-2746-сонли "Кичик ва хусусий тadbirkorlikni mikro kreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – №6. – 71-модда.



imkoniyati bevosita kredit oluvchining rentabelligiga bog‘liq²⁵.

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 7 - iyundagi PQ-3777-sonli “Har bir oila - tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko‘rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar hajmini oshirish imkonini berdi²⁶.

Ushbu Qarorga muvofiq, yurtimizning har bir tuman va shahrida, eng avvalo olis va tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilishini ta‘minlashga qaratilgan “Har bir oila - tadbirkor” dasturi amalga oshiriladi.²⁷

²⁵Grameen Bank. Annual Reports.

²⁶Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 2018 йил 7 июнь.ПҚ-3777. “Хар бир оила – тadbirkor” дастурини амалга ошириш тўғрисида//КХММБ: 07/18/3777/1325-сон.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 07.06.2018 yildagi PQ-3777-son